


**МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ**

# **НАУЧНЫЙ ИМПУЛЬС**



**Последние  
новости**

**Последние  
образование**

**Последние  
исследование**

**И НОВЫЕ НАУКИ**

Rajabova Iroda Hamidovna Idiqurbonova Shahzoda Mizrob qizi	
<b>ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ТАБИАТ ХАКИДАГИ КАРАШЛАРИ</b> Ражабова Ирода Хамидовна Зарипова Нодира Солиевна	<b>517</b>
<b>«ALPOMISH» DOSTONI - VATANPARVARLIK FAZILATLARIDAN SABOQ BERUVCHI MA'NAVIY DURDONA</b> Sharipova Mahbuba Baxshulloyevna	<b>523</b>
<b>МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА INNOVATSION TA'LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISH METODIKASI</b> Ergasheva Gulzoda Baxtiyorovna	<b>528</b>
<b>KATTA GURUH BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING AHAMIYATI</b> Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna Jahonqulova Zamira Vali qizi	<b>534</b>
<b>КАК ИСПОЛЬЗОВАТЬ ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ</b> Хамраева Нигора Абдуллаевна	<b>539</b>
<b>UMUMINSONIY AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA VA RIVOJLANTIRISHDA OILAVIY TARBIYANING O'RNII</b> Raxmonova Gullola Shavkatovna Asadova Vazira Bobirovna	<b>547</b>
<b>ДУХОВНОСТЬ-ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА</b> Рахмонова Гуллола Шавкатовна Намозова Шахзода	<b>552</b>
<b>МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONI SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH</b> Niyazova Sitora Davronovna Hamroyeva Lobar Olimjon qizi	<b>558</b>
<b>ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ И ЕГО СОСТАВЛЯЮЩИЕ СТОРОНЫ</b> Ситора Давроновна Ниязова Джафарова Ферузабону Ферузовна	<b>564</b>
<b>МЕТОДОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ ДОШКОЛЬНОГО ДЕТСТВА</b> Хамраева Нигора Абдуллаевна Джафарова Феруза Ферузовна	<b>574</b>
<b>ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ АСОСИДА МАКТАВГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАМОЙИЛЛАРИ.</b> Турдиева Моҳира Журақуловна	<b>579</b>
<b>ЗНАЧЕНИЕ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ И МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ В СОЦИАЛЬНОМ И ЛИЧНОСТНОМ ФОРМИРОВАНИИ ДЕТЕЙ</b> Гафурова Дилбар Хакимовна Сидикова Дильноза Баходировна	<b>586</b>
<b>О'QITUVCHI IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSI</b> Jumayev Umidjon To'raqulovich	<b>592</b>
<b>МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА УВАЖЕНИЯ К СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫМ НОРМАМ У УЧАЩИХСЯ ВО ВРЕМЯ УРОКОВ</b> Хакимова Наргиза Супхановна Курбанова Мафтунабону	<b>597</b>

## KATTA GURUH BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING AHAMIYATI

**Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna**

*BuxDU maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

**Jahonqulova Zamira Vali qizi**

*BuxDU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotining katta guruh bolalarining badiiy adabiyotga bo'lgan munosabatini tabiat (atrof-olam) bilan tanishtirish davomida shakllantirib borish, hamda badiiy adabiyotning inson hayotidagi o'rnini, ahamiyatini oshirib borish haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar :** *maktabgacha ta'lim tashkiloti, tarbiyachi, katta guruh, badiiy adabiyot, tabiat, atrof-olam.*

**Аннотация:** *В данной статье говорится о формировании отношения большой группы детей дошкольной образовательной организации к художественной литературе в процессе приобщения к природе (мирозданию), а также о повышении места и значения художественной литературы в жизни человека.*

**Ключевые слова:** *дошкольная образовательная организация, воспитатель, большая группа, фантастика, природа, окружающая среда.*

**Annotation:** *This article talks about shaping the attitude of a large group of children of a preschool educational organization to fiction during the introduction to nature (the universe), as well as increasing the place and importance of fiction in human life.*

**Key words:** *preschool educational organization, educator, large group, fiction, nature, environment.*

Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida badiiy adabiyotdan foydalanishga qo'yiladigan talablar bugungi kun tarbiyachisidan juda katta ma'sulyatni talab qiladi. Chunki tabiatdagi voqea-hodisalarni, dunyodagi global muammolarni bolalarga yetkazishda tarbiyachi o'zi xabardor bo'lishi bilan birga o'zi namuna xam bo'lishi kerak. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlarini rejalashtirishdagi asosiy qo'llanma manbai " Ilk qadam" Davlat dasturi hisoblanadi. Bunda umumpedagogik qoidaga va rejalashtirish prinsplariga amal qiladi. Rejalashtirishning asosiy prinsipi bola shaxsini aqlan, axloqan shakllantirib, ularga tabiatga doir bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilish, tabiatga nisbatan ilmiy nuqtayi nazardan oddiy tushunchalar berish, tabiatda kattalar mehnatini hurmat qilish hamda uni qadrlash, o'simlik va hayvonlarni sevish va ularni asrash ruhida tarbiya berishdan iboratdir. Bolarga bularni tushuntirish uchun albatta, badiiy adabiyotdan foydalanamiz. Xalqimiz orasida "Kitob o'qimaydigan odam hayratlanarli darajada

zerikarlidir”, degan ibora bor. Chinakam savodli kitobxonni tarbiyalash uchun bolada badiiy adabiyotni qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan yoshlarni kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida nafaqat ta'lim tashkilotida balki oilada ota-ona ham ma'sul shaxs ekanligini, bu ehg dolzarb muammolardan biri ekanligini ta'kidlamoqdalar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ota-onalar oyiga o'rtacha 2-3 ta kitob sotib olishadi. Tabiat (atrof-olam)ni o'rganish jarayoni bola tafakkurini rivojlantirishda boshqa hech narsa bilan almashtirish mumkin bo'lmagan hissiy rag'batlantirishga sabab bo'ladi. Bunday rag'batlanish bog'cha yoshidagi katta bolalar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Chunki tevarak-atrofdagi predmetlar, voqeliklar asosida tug'iladigan hissiyot bola tafakkurida rivojlanib, uning tiliga, jonli ifodaga ko'chadi. Shuning uchun ham bolaning tevarak-atrofdagi voqelikni bilib borishi, uning go'zalligini, bitmas-tuganmas murakkabliklarini his etishi, ijtimoiy munosabatlar va kattalar dunyosiga kirib borishi, uning har tomonlama kamol topishi bilan birga, bog'lanishli nutqining ham boyib, shakllanib borishiga olib keladi. Zero, bolalik dunyoni zavqlanib, hissiyotlarga to'lib idrok etish, uni kashf etish bilan uyg'undir. Ma'lumki, pedagogik texnologiya deganda o'quv-tarbiya jarayonini oldindan ma'lum tizimda uzviy loyihalash, ma'lum pedagogik tizimning hayotda amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi degan ma'no tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish ham ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ya'ni bolalarda nutqni rivojlantirish maqsadi, mazmuni, tarbiya metodlari, shakllari va vositalari ifodalangan bir butun tizim texnologiyasidir. Biz hozirgi davr talabi darajasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning bir butun tizimi, mazmuni, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab chiqdik hamda eng yangi talablar darajasida uni amalga oshirish metodlari, shakllari va vositalari texnologiyasini ishlab chiqdik. Nutqda eng muhim metod bu dialogik nutq, ya'ni bolalar bilan so'zlashishdir. So'zlashish og'zaki nutqning eng oddiy shakli bo'lib, unda bola o'zini tutishi, ko'z qarashi, xatti-harakati, ovozinig pastbalandligi, tezligi kabi turli holatlar hisobga olinadi. So'zlashish –dialogik nutq, asosan kattalar yordamida amalga oshiriladi va u ayniqsa, tevarak-atrofnig bilish jarayonida yaxshi natijalar beradi. Jumladan, jamoat joylarida, ko'pchilik o'rtasida nutq madaniyatiga rioya etishga e'tibor qaratiladi. Bunda bir-birining nutqini to'ldirib borish, tuzatishlar kiritish, so'rash, so'rab bilib olish dialogik nutqqa o'rgatishning usullari sanaladi.

Maxsus tayyorlanadigan muloqotlar esa dastur asosida muayyan mavzular bo'yicha uyushtiriladi. Masalan, maxsus tayyorlangan suhbatlar quyidagicha tuziladi: dastlab mavzu belgilanadi, uning maqsadi, vositalari aniqlanadi, savollar tuziladi. Lekin bularning har biri nimaga? nima uchun? nimadan? qanday qilib? kabi izlanuvchi va muammoli savollar tarzida bo'lishi zarur. Shu bilan birga, savollar, umumlashtiruvchi xarakter kasb etishi ham mumkin. Bunda muloqot mashg'uloti suhbat, muqaddima, asosiy qism va xulosadan iborat bo'ladi

Xulosa, sifatida MTT tarbiyalanuvchilariga tabiatni tanishtirishda badiiy adabiyotning ahamiyati bolalarda nutqning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning holatini o'rganish dolzarb masala hisoblanib, umuman bolalarning yosh xususiyatlarida shakllanadi. Kitobxonlik esa uning xulosalarga tayanib, bolalarning kitob o'qishicha, ularning yosh xususiyatlarini qanday kitoblarni o'qish o'rganishga ta'sir etadi. Shunday qilib maktabgacha yoshdagi bolalarda, umuman bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishni uyg'otishda tabiatning o'rni beqiyosdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хасанова Г. К. Педагогические особенности формирования творческой активности учащихся в начальном образовании //Научный журнал. – 2019. – №. 6 (40). – С. 86-87.

2. Хасанова Г. К. Цель использования электронных образовательных ресурсов в системе обучения и образования //Научный журнал. – 2019. – №. 6 (40). – С. 84-85.

3. Хасанова, Г. К. "ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ ЛОГИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ." *Проблемы науки* (2021): 90.

4. Хасанова Г. К. ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ДОУ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА И СУЩНОСТЬ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 173-181.

5. Хаитова Н. И., Хасанова Г. К., Мухаммедова М. Ш. ТВОРЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧАЩИХСЯ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ //Научная дискуссия: вопросы педагогики и психологии. – 2016. – №. 3-1. – С. 148-153.

6. Хасанова Г. К. Интеграция предметов в современной школе как педагогическое явление //Педагогическое образование и наука. – 2017. – №. 2. – С. 127.

7. Хасанова Г. К. ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СТАНОВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ ГРАМОТНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В УЗБЕКИСТАНЕ //ББК. – 2019. – Т. 71. – С. 50.

8. Kasimovna K. G. Pedagogical Research Methods of Training in Higher Educational Establishments: A Comparative Analysis //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 250-255.

9. Nizomiddinovna H. N. et al. Tarbiyachi Faoliyatida Nutqiy Etiketning O 'Rni //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 5-9.